

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 163 (1224), 2024-yil 15-avgust, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH
VA IJTIMOIIY HIMOYA
TIZIMI TAKOMILLASHTIRILADI**Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-avgust kuni
kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish
chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishdi.**

Har bir mamlakat rivojlanish jarayonida kambag‘allikni qisqartirish bosqichidan o‘tadi. O‘zbekiston ham 2020-yilda aholining muayyan qismi kambag‘al ekanini tan olib, ularga madad berishga kirishdi. Moliyaviy-tashkiliy choralar ko‘rilib, tizim joriy qilindi. Bu o‘z samarasini berib, uzoq yillar og‘ir vaziyatda bo‘lgan 3 milliondan ziyod odamlarning sharoiti yaxшилandi. Kambag‘allik darajasi 17 foizdan 11 foizga tushdi.

Kelgusi uch yilda kambag‘allik darajasini 11 foizdan 7 foizga qisqartirish maqsad qilingan. Hozirgacha bo‘lgan tizim bilan natijadorlikni oshirish qiyin. Kambag‘al oilani tanlashda aniqlik, ularni bu holatdan olib chiqish va mablag‘ ajratishda yaxlitlik yetishmaydi. Shu yil 12-iyul kuni Farg‘ona viloyatida o‘tgan yig‘ilishda davlatimiz rahbari bu borada yangicha yondashuvlar kerakligi, endi kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya bir tizimda bo‘lishini aytgan edi.

Taqdimotda ushbu ikki sohani mutanosib rivojlantirish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Tahlillardan kelib chiqib, kambag‘allikni aniqlash mezonlari va manzilli ro‘yxati shakllantirildi. Jumladan, unga “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”dagi hamda kambag‘allikka tushish xavfi yuqori bo‘lganlar kiritiladi. Bunday oilalar “mahalla yetilligi” va faollari tomonidan ovoz berish yo‘li bilan tasdiqlanadi. Kambag‘allikdan chiqarishga

qaratilgan barcha ijtimoiy xizmat va yordamlar “Inson” markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kambag‘allik omillarini o‘rganish uchun ijtimoiy himoya va bandlik masalalarida 8 ta yo‘nalishda yagona savolnoma ishlab chiqiladi. Shu asosida oilalarning imkoniyatlari baholalanib, 3 ta toifaga ajratiladi. Har bir oilaga individual yondashilib, “oyoqqa turishi”ga ko‘maklashiladi.

Shu taxlit kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan mahallalar ro‘yxati ham shakllantirildi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi va hokimliklar tomonidan har yili 50 ta mahalla tanlab olinib, ular kambag‘allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirib boriladi.

Bugungi kunda hokim yordamchilariga 20 dan ortiq vazifalar yuklatilgan. Shu sababli kambag‘allikni qisqartirish masalasi ikkilamchi darajaga tushib qolgan. Endi hokim yordamchilarining faoliyati qayta ko‘rib chiqilib, asosiy e’tibor kambag‘allikni qisqartirish va ular bandligini ta’minlashga qaratiladi.

Har yili kambag‘allikni qisqartirishga 14 trillion so‘m yo‘naltirilmoqda. Lekin bu mablag‘ 40 turdagi moliyaviy vositalar orqali 10 ga yaqin idora tomonidan berilmoqda, yagona yondashuv yo‘q. Shu bois, bu tizim ham o‘zgartiriladi. Mablag‘lar hudud, tuman va mahallalar kesimida kambag‘al oilalar sonidan kelib chiqib, mos ravishda Agentlik va hokimliklar tomonidan taqsimlanadi. Bunda mablag‘lar, birinchi

navbatda, oilani kambag‘allikdan chiqarishga yo‘naltiriladi.

Kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlar ijrosi bo‘yicha 3 bosqichda — mahalla va tuman, viloyat hamda respublika darajasida monitoring tashkil qilinadi. Bu borada jamoatchilik nazorati kuchaytiriladi.

Ish o‘rinlarini zaxiralash amaliyoti o‘rniga ehtiyojmand kishilarni ishga olgan tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlari joriy qilinadi. Bo‘sh ish o‘rinlari to‘liq raqamlashtiriladi. Buyurtmachini kasanachi va frilanserga bog‘laydigan onlayn platforma tashkil qilinadi. “Ishga marhamat” monomarkazlarida kambag‘al fuqarolarni xizmatlar sohasida zamonaviy kasblarga o‘rgatish yo‘lga qo‘yiladi.

— Oxirgi yillarda to‘plangan tajriba va odamlarning ehtiyojidan xulosa qilib, kambag‘allikni qisqartirishni yangi bosqichga olib chiqish kerak. Ehtiyojmand insonlarning xohishi va imkoniyatini qo‘llab-quvvatlab, hayotga, jamiyatga olib kirish zarur. Umuman, har qanday ijtimoiy yordam pirovardida bandlikka bog‘lanishi shart, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mutasaddilarga ijtimoiy ko‘maklarning manzilliligi va shaffofligini ta’minlash, bandlik va kichik tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘za

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N ITADBIRKORLAR KUNI MUNOSABATI
BILAN SOHA VAKILLARIDAN
BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, sohada yangi va istiqbolli loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, yurtimizning iqtisodiy qudrati va eksport salohiyatini yuksaltirishga qo‘shayotgan katta hissasi, o‘zining tashabbuskorligi, zamonaviy bilim va tajribasini namoyon etib, investitsiyalarni jalb qilish, import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatishni yanada kengaytirish, aholi bandligi va farovonligini ta’minlash yo‘lida alohida jonbozlik ko‘rsatib kelayotgani, shuningdek, ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

**“Mehnat shuhrati”
ordeni bilan**

Achilov Nurmuxamed Nurullayevich — G‘ijduvon tumanidagi “Parvoz Humo Ravnaq Trans” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Buxoro viloyati

Turdaliyev Boxirjon Ilxomovich — Beshariq tumanidagi “Vodiy naslli parranda” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Farg‘ona viloyati

“Do‘stlik” ordeni bilan

Abdullayev Abduvayid Tolibjonovich — Asaka tumanidagi “Asakatekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyati kuzatuv kengashi raisi, Andijon viloyati

Arabbayev Xusan Jamalitdinovich — Chinoz tumanidagi “Yulduz” chorvachilik fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Toshkent viloyati

Galperin Leonid Vladimirovich — “Toshkent quvur zavodi” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischilar kengashi raisi, Toshkent shahri

Daniyev Abdushukur Jaylovovich — Muborak tumanidagi “Shodlik paxta-don klasteri” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Qashqadaryo viloyati

Karimov Akmal Akbarovich — Mirzo Ulug‘bek tumanidagi “Krantas” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Toshkent shahri

Kostoyev Magomed Ezmanovich — Rishton tumanidagi “Kosto Line Holding” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Farg‘ona viloyati

Mamurov Sharifjon Raximovich — Buxoro tumanidagi “LKW-Service” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Buxoro viloyati

Muminov Abdulxamid Maxmudjanovich — Davlatobod tumanidagi “Sao-dat sanoat servis” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Namangan viloyati

Pardayev Baxodirjon Abdimalikovich — Oqoltin tumanidagi “Zanjirli shamshir” tuyaqushchilik fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Sirdaryo viloyati

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O Y I S H I“FAOL TADBIRKOR” KO‘KRAK NISHONI
BILAN TAQDIRLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimiz iqtisodiyotida barqaror o‘shish sur‘atlarini ta’minlash, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, yurtimizning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yuksaltirish borasidagi katta xizmatlari, sohaga ilg‘or innovatsion, “yashil” va raqamli texnologiyalarni joriy etish, sarmoyalar hajmini ko‘paytirish, ish o‘rinlari yaratishga qo‘shgan munosib hissasi, shuningdek, biznesda erishayotgan salmoqli natijalari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandin:

Allambergenov Sharipbay Orazimbetovich — Taxiotosh tumanidagi “Gul-sara pillachi” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Bazarbayeva Gulbaxar Utebayevna — Nukus shahridagi “Qanli Xantore” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Jarkinbayev Salavat Mirzakulovich — Ellikqal’a tumanidagi “Bo‘ston Silk” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Sultanov Telman Razumovich — Ellikqal’a tumanidagi “Ro‘zimboy bobo” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Turekeyev Azamat Utebayevich — Chimboy tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor, hunarmand-o‘tov yasovchi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Urazbayev Ajiniyaz Abdreymovich — Nukus shahridagi “Orient Technology” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Abduraimov Abdurashid Abduraxmon o‘g‘li — Shahrixon tumanidagi “Mebel Esse” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Andijon viloyati

Djurayev Iftixor Abduraimovich — Qo‘rg‘ontepa tumanidagi “Yagona sharq zamini” xususiy korxonasi rahbari, Andijon viloyati

Davomi 2-betda

BMT BOSH ASSAMBLEYASI
O‘ZBEKISTON TASHABBUSINI
BIR OVOZDAN QO‘LLAB-QUVVATLADI

13-avgust kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida BMT Bosh Assambleyasi “Degradatsiyaga uchragan va qurg‘oq hududlarda barqaror o‘rmonzorlarni barpo etish, daraxt ekish va ularni targ‘ib qilish — ekologik muammolarga qarshi kurashning samarali yechimi” rezolyutsiyasini bir ovozdan qabul qildi.

Davomi 2-betda

“Yangi O‘zbekiston” gazetasida yangi loyiha

Mustaqilligimizning
33 YILLIGIGA
INTERVYUMEN NECHUN SEVAMAN
O‘ZBEKISTONNI?VATAN KO‘KSIMDA, TIL BO‘G‘ZIMDA,
NIGORIM UMIDIMDA!

O‘zbekistonni sevish oson ish emas. Buning uchun Fitratning ilmyor, jihodyor, fidokor sevgisi kerak. Buning uchun yaqin zamondoshimiz Rauf Parfi kabi umr bo‘yi Turkiston yodi, muhabbati, ruhi bilan og‘ishmay yashamoq va ijodiy kurashmoq kerak. O‘z zamonida Alisher Navoiy Turkistonni “zanjirband sher” deb atagan va u har doim “yengaman” deb yashashini aytgandi. Men xalqimning yengishga bo‘lgan qudratiga hech qachon shubha qilgan emasman.

Davomi 3-betda

Tahririyat





Mustaqilligimizning 33 YILLIGIGA INTERVYU

Bugun jamiyatimizda ijtimoiy faollik tushunchasi g‘oyat keng ma’noga ega bo‘lib bormoqda. Vatanimiz mustaqilligining 33 yilligini nishonlar ekanmiz, ochig‘ini aytish kerak, ommaviy faollik yaqin 7-8 yilda misli ko‘rilmagan maqomlarga ko‘tarilganini tan olmasak, insofdan bo‘lmas. Xalqimiz hayotiga daxldor bo‘ladimi, dunyo voqealari silsilasiga borib taqaladimi, har bir o‘zbekistonlik o‘z fikrini, nuqtayi nazarini xoh ijobiy, xoh tahliliy va tanqidiy yo‘sinda bo‘lsin, bayon etish va shu orqali umummilliy, umumjahoniy fikrlar simfoniyasiga qo‘shilish imkoniga ega. Ko‘ngil sofligi, xolislik va ezgu niyat bo‘lsa bas!

MEN NECHUN SEVAMAN O‘ZBEKISTONNI?

VATAN KO‘KSIMDA, TIL BO‘G‘ZIMDA, NIGORIM UMIDIMDA!



Ibrohim G‘AFUROV, O‘zbekiston Qahramoni

Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, Prezidentning “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qaroridan so‘ng ulkan ijtimoiy-siyosiy kurashlarda adolatsizliklarni yengishning asl dastaklari qanday bo‘la olishi mumkinligiga duch keldim va to‘la amin bo‘ldim.

Men xalqim va mamlakatimni u chinakam yengish san‘ati va ta‘limotiga ega bo‘lgani va buni ijtimoiy-siyosiy maydonlarda to‘la yuzaga chiqarishga qodir ekanini uchun ham sevaman. Bir zamon asrdoshimiz va maslakdoshimiz bo‘lgan yonq qalbi shoir “Nurni avaylaylik” degan she‘r yozib, vatandoshlarga murojaat qilgan va nur timsolida xalqimizning bitmas-tuganmas ijodiy kuchlarini ko‘rolgandi. Uzoq

tariximizning tumanliklariga sinchiklab qarasak, xuddi mana shu narsa, ya‘ni ijodiy kuchlar hech qachon so‘nmagani va zabunlikka uchramagani hamda xalqning ko‘ksini har qachon baland tutganini yaqqol ko‘ramiz. Yengish san‘ati va ijodiy kuchlar xalqimiz va O‘zbekiston tarixida chambarchas bog‘lanib keladi. Aynan ular xalqimizni haqiqiy birdamlikka chorlagan.

XIX asr eng og‘ir, eng zabun davr edi. O‘sha zabun davrda Muqimiy, Furqat, Nodira, Zavqiy, hazrat Behbudiy, hazrat Avloniy, hazrat Almaiy, hazrat Bayoniy bong uraroq xalqning ongini quyosh kabi yoritdilar. Xalqimiz ming asrlardan beri nimaga chanqoq? Ilm-fanga chanqoq! Kim ilmga tashnaligimizni inkor eta oladi? Shunday asl haqiqatga munkir bormi dunyoda! Bor bo‘lsa mabodo, kim uning yuzi qaroligiga shu paytgacha ishonch hosil qilmagan! Men xalqim va O‘zbekistonni ilm oshuftasi bo‘lgani uchun sevaman! Axir qaysi nomni hozir aytmay, u qalbingizda quyosh kabi porlashini aniq bilaman. Men yangiliklarni astoydil sevgani va yangiliklarga intilib, kurashib kelganini xalqimning ulug‘ tarixan yashovchanligi, kurashchiligidan o‘lmas belgisi deb bilaman. Xalqim dunyo xalqlariga hamisha muhabbat bilan qarab keladi. U hech qaysi bir xalq yo mamlakatga kek va nafarat saqlagan emas. Odamlik qadrimmatini eng baland mavqeda tutgan, baland mavqeda birodarona munosabatda bo‘lgan. Mana, hozir har birimiz shu birodarona, tenglar ichra teng munosabatlarda taraqqiyot

va demokratiyaning eng mustahkam pillapoyalaridan yuksalib borayotganiga ishonch-e‘tiqodimiz soat sayin komil darajaga chiqmayaptimi?! Shularning barchasi barobarida biz o‘zimizni eng bahodirona maqomlarda dunyoda nihoyatda xavfli tus olib borayotgan kibermaydonlardagi kibexatarlardan ishonchli himoyalanimizni nihoyatda jiddiy vazifa deb qabul qilaylik.

Hozirgi kuchli harbiy texnologiyalarni o‘rganish va ularni chuqur ishlab chiqish xavfsizligimiz yo‘lida afsonaviy “Iskandar devori”dan ham ishonchliroq va aniq natijalar berajak. Biz go‘zal O‘zbekistonimizni behad sevar va unga hayotimizni bag‘ishlarkanmiz, she‘rda aytilgan “nechun” degan shoirona so‘zga emas, teranroq, hayotiyroq, realroq “nega” degan savolga javob berishga o‘rganaylik. “Nega” benihoya real savoldir. Agar uni “nechun”ning o‘miga qo‘ysak, satr darhol o‘z jarangdor shoironaligini yo‘qotadi va amaliy falsafiy savolga aylanadi. “Nechun” bilan “nega”ning boy o‘zbek tilimizda shunchalar katta farqi bor. Men o‘zbek tilimizni shunday buyuk farqlarni farqlashi va ma‘nolarni tugal muayyanlashtira olgani uchun sevaman. Shoir tilning bu ma‘nodorlik xususiyatlarini nihoyatda teran his qilardi.

Xo‘sh, nega men O‘zbekistonni sevaman? Men O‘zbekistonni chin o‘tmishim, bugunim, mehrini darig‘ tutmaydigan kelajagim bo‘lgani uchun jondan yaxshi ko‘raman. Vatani ko‘ksimda, til bo‘g‘zimda, nigorim umidimda.


FAXR VA MUHABBAT ILA

Bu voqeaga kimlardir juda mayda va arzimas yangilik sifatida e‘tibor qaratmagan bo‘lishi mumkin. Men esa zarracha ikkilanmay, ushbu holatni favqulodda va tarixiy yangilik, shodiyonaga loyiq, shuningdek, ham siyosiy, ham ijtimoiy va albatta, ham ma‘naviy ahamiyatga molik voqea deya ta‘riflagan bo‘lar edim.

Hayot uzluksiz qiyosdan iborat. Axir yaqin-yaqingacha farzandlarimiz-u nevaralarimizni bolalar bog‘chasiga joylashtirguncha ne-ne sarsongarchiliklarga ro‘para kelardik?! “Murosai madora”lardan insoniy izzatimiz, g‘ururimiz poymol etilmasmidi?! Endi esa “Bo‘lar ekan-ku!” deb yuborasan beixtiyor.

Gap yana nimada? Gap — hayotimizda yuz bergan va berayotgan katta-kichik voqealardan quvona bilishda! E‘tirof eta bilishda! Vataniylikdek yuksak tuyg‘u oddiy insoniy quvonch, e‘tirof va ishonchdan boshlanadi.

Yurtimizda ko‘z o‘ngimizda ro‘yobga chiqayotgan, amalga oshirilayotgan islohot manzaralarini tasvirlash alohida mavzu, lekin xalqimiz, keng omma har bir yangilikni shaxsiy-oilaviy shodiyonasidek qabul qilishga o‘rganayotgani, odatlanayotganini nihoyatda qimmatli tuyg‘u deb hisoblayman. Zero, shaxsiy va ijtimoiy tuyg‘uning uygunligi, jipsligi sog‘lom ma‘naviy yuksalish, komillik debochasidir.



Xurshid DO‘STMUHAMMAD, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi

Oilada farzand dunyoga keldi. Tug‘uruxxonada yangi mehmonga taalluq hujjatlar rasmiylashtirildi. Oradan ropparosa 3 yil o‘tgach, ya‘ni chaqalog‘imiz 3 yoshga to‘lgan kuni tuman maktabidagi boshqarmasidan xonadonga quyidagi mazmunda xabarnoma keldi: falonchi ismli farzandingiz 3 yoshga to‘lgani bilan tabriklaymiz, u shu kundan e‘tiboran falon bolalar bog‘chasiga qabul qilindi.

“Hayot uzluksiz qiyosdan iborat. Axir yaqin-yaqingacha farzandlarimiz-u nevaralarimizni bolalar bog‘chasiga joylashtirguncha ne-ne sarsongarchiliklarga ro‘para kelardik?! “Murosai madora”lardan insoniy izzatimiz, g‘ururimiz poymol etilmasmidi?! Endi esa “Bo‘lar ekan-ku!” deb yuborasan beixtiyor.

BUGUNGI QULAYLIKLAR XAYOLIMIZGA HAM KELMAGAN

Sanobarxon JO‘RAYEVA, pensioner

Andijon viloyati

Inson peshanasiga nima yozilganini bilmaydi. Bir o‘g‘il, uch qizni yolg‘iz tarbiyalashimga to‘g‘ri keldi. Juda ko‘p qiyinchiliklarni boshdan o‘tkazdim. Biroq ota-onamiz hech qachon nolimaslikni, sabrning mukofoti borligini bolagimizdan qalbimizga singirdigan. Avvalo, tinchlik bo‘lsin, deyishgan. Shuning uchun duo qilganimizda hamisha tinchlik-xotirjamlik bo‘lishini so‘raymiz. Chunki tinchlik bo‘lmasa, ko‘ngilga hech narsa sig‘mas ekan.

Yaratganga beadad shukr, televizorda ko‘rib, eshitayotganimiz — baxtsizliklar, ayniqsa, suvsizlik, ocharchilik kabi sinovlar bizdan narida. Kechasi bilan xavotirda yotmaymiz. Darvozamiz ochiq qolib ketsa ham birov bostirib kelmaydi, tahdid qilmaydi. Qayerga bormaylik, “Hujjatim qolib ketmadimikan”, degan hadikda emas, emin-erkin yuramiz.

Bir paytlar yomg‘ir, qor yoqqanida loyga botadigan ko‘chalimizga asfalt yotqizilyapti. Bir necha yil oldin bolalarim bilan uy qurib, yangi mahallaga ko‘chib kelganimizda shu yerlar ham bir kun kelib obod bo‘lmikan, yon-atrofimiz qo‘shnilar bilan to‘lmikan, derdim. Chekka joylarda ham har bir uyga toza ichimlik xir kelyapti. Avvalgiday faqat o‘choqda choy qaynatib, ovqat pishirish yo‘q. Yashashimiz yildan yilga yengillashyapti. Aslida, tinchlik bo‘lsa, qancha mehnat qilsa ham charchamaydi odam.



O‘g‘lim paxta dalasiga miroblilik qilishdan tashqari dehqonchilik bilan ham shug‘ullanadi. Hosil yig‘ib olingach, qilgan xarajati ko‘zga ko‘rinmay ketadi. Halol mehnat bilan nevaralarimni o‘qityapti. O‘zim farzandlarimni oliygohlarda o‘qita olmaganim uchun ularning yutug‘idan quvonaman. Bugungi bolalar — eng baxtli, rizqi butun bolalar. Hatto bog‘chaga boradigan nevaram ham chet tillarni o‘rganib kelayotganiga havas qilaman. Bu yil yana bir nevaram ingliz tilidan sertifikatini ko‘lgani uchun yuqori ball to‘pladi. Buni eshitib, ko‘zimga yosh keldi. Biz maktabda o‘qigan paytlarda oltin medalimiz bo‘lsa ham bunday imkoniyatlar yo‘q edi. Guldek yoshligimiz, ayni o‘qib-o‘rganadigan paytimiz paxta dalalarida o‘tib ketdi. Ilmning ortidan chet

elga borishni-ku tushimizda ham ko‘rmasdik. Hozir qishlog‘imizdan qancha-qancha bola sport, ilm tufayli boshqa davlatlarda o‘qiyapti, bilimini oshiryapti.

Shunday yorug‘ kunlarda ham bir-biriga adovat qilib, arzimagan muammo sabab rahbarlarga arz qilib yurganlarni sira tushunmayman. O‘tgan kunlarni hech eslashmikan? Bir yo‘la ko‘zni yumib olish kerak emas. O‘n yillar avval ham bugungiday sharoitlar haqida o‘ylamaymiz. Xayolimizga ham kelmagan qulayliklar o‘z-o‘zidan bo‘lmasa kerak? Ayniqsa, nafaqa puliga ikki-uch kunlab navbatda turmayotganimizga shukr deymen. Pasport olish uchun oylab tuman markaziga qatnab, ham umrimiz o‘tgan, ham mablag‘imiz ketgan. Hozir u kunlarni ertakday eslaymiz.

Inson qadri ulug‘langani shu emasmi?!

Hozir o‘ziga intilgan odam uchun barcha imkoniyat bor. Mana, bozorlarimiz to‘kin. Ayniqsa, un, non serobligiga ko‘z tegmasin! Bir hovuch don uchun ne azoblarni ko‘rmaganmiz. Yaratganga beadad shukr, tandirlar to‘lib non yopilyapti. Sumalak qilishga, Navro‘zdek milliy bayramlarimizni nishonlashimizga to‘sqinliklar yo‘q. Kitoblarni berkinib o‘qiydigan paytlar o‘tib ketdi. Ro‘za tutib, diniy amallarimizni to‘la-to‘kis ado etishdan qo‘rqmaymiz. Madrasalarda ta‘lim olayotgan qori o‘g‘il-qizlarimiz zakosi ko‘zimizni ham, ko‘nglimizni ham yashnatadi. To‘ylarimiz to‘kin-sochinlikda, hatto qishloqlarda ham zamonaviy to‘yxonalarda o‘tyapti. Bularning bariga shukr qilish kerak. Shukronalik hissi odamni mehnatga, olg‘a intilishga, ahillikka chorlaydi. Vatani shu yo‘sin bunyod etiladi.

ODAMLAR YURTIGA OSHIQ BO‘LSINLAR

Feruza ABDUSAGATOVA, O‘zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakulteti katta o‘qituvchisi



Inson ega bo‘lgan narsalar ichida eng qadri va bebahosi tug‘ilib o‘sgan Vatandir. U insonning kindik qoni to‘kilgan, go‘daklik chog‘i o‘tgan, yoshlik, keksalik davrlarini surgan, xotiralari muhrlangan, ota-bobolarining yurti, farzand-u nabiralari ulg‘aygan zamindir!

Shu o‘rinda ona zamin bilan bog‘liq bir rivoyat yodga tushdi.

...Qadimda tunda bir uyga o‘g‘ri oralabdi. Qo‘njiga ursa bo‘ladigan nima bor ekan deb hamma yoqni paypaslab yurib, nogoh qo‘li tokchadagi bir idishga tegibdi. Idish ichida nimadir barga o‘xshabdi. Unga qo‘l solib, tatib ko‘rsa, tuz ekan. O‘g‘ri o‘sha joyda bir oz o‘ylanib turib, “Bu uyning tuzini totdim, endi ularga xiyonat qilishim to‘g‘ri bo‘lmas”, deb hech narsa olmay chiqib ketgan ekan.

Kim bir joyning tuzini totgan bo‘lsa, u o‘g‘rimi yoki to‘g‘rimi, o‘sha joy, o‘sha

yer uning uchun hurmatga, ehtiromga loyiq maskanga aylanadi. Xalqimizda ham “Tuzini yeb, tuzlug‘iga tupurma” degan nasihat bor. Bugun shu vatanda, shu zaminda voyaga yetib, tarbiya, ilm topib, qo‘lidan bir ish keladigan bo‘lib qolganda xorijga ketish talvasasiga tushib qolayotgan yoshlarni sira tushunmayman.

“O‘zga yurtida shoh bo‘lguncha, o‘z yurtig‘da gado bo‘l!” hikmati bejiz



Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

MUSTAHKAM IJRO INTIZOMI
VA SHAXSIY MAS’ULIYAT —

INNOVATSION RIVOJLANISH POYDEVORI



Ijro intizomini ta’minlash ish faoliyatini tashkil etishning o‘zagi hisoblanib, o‘z ichiga ishlab chiqarishning rejalashtirilishidan boshlab yakuniy natijaga erishishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi. Topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishiga qarab, tashkilotdagi ishlar qay darajada samarali tashkil etilgani va natijadorlikka yo‘naltirilganiga baho berish mumkin.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi keng ko‘lamli islohotlar samaradorligini ta’minlashda raqamlashtirish muhim o‘rin egallaydi.

Shu jihatdan 2021-yilda qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishga doir qabul qilingan hujjatlar o‘z vaqtida va islohotlar bilan hamohanglikdagi zaruriy choraligi ko‘rinadi.

Xususan, davlatimiz rahbarining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni va o‘sha yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori barcha darajadagi davlat boshqaruvi organlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi monitoringini yuritishda mazkur tizim ta’sirchanligini oshirish hamda samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashda muhim qadam bo‘ldi.

Prezidentimizning farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari hamda hukumat qarorlarida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishini innovatsion faoliyatdagi islohotlarda ham ko‘rish mumkin.

Innovatsion rivojlanish agentligi faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash masalasi kun tartibidagi eng dolzarb vazifa deb qaraladi.



Sharof RAJABBOYEV,
Innovatsion rivojlanish agentligi
direktori

Buning amaliy ifodasi sohada erishilgan muhim natijalar o‘z aksini topgan.

Prezident hujjatlaridagi topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi O‘zbekistonning Global innovatsiya indeksidagi (GIU) o‘rnini yaxshilashga xizmat qilmoqda. 2023-yilda O‘zbekiston 132 ta davlat orasida ushbu indeks bo‘yicha 82-o‘rinni egalladi. Davlatimiz innovatsiyalar sohasida milliy iqtisodiy

rivojlanish darajasiga solishtirganda baland ko‘rsatkichga erishgan mamlakatlar qatoridan joy oldi va yalpi ichki mahsulotga nisbatan innovatsiyalarning yuqori samaradorligi qayd etildi.

Davlat budjeti mablag‘i hisobidan moliyalashtiriladigan fundamental, amaliy tadqiqotlar hamda innovatsion loyihalarni shakllantirish va bajarishga doir hujjatlar ijrosi bo‘yicha 2023-yilda umumiy hajmi 970 milliard so‘m bo‘lgan 558 ta loyiha amalga oshirilishiga erishildi.

Misol uchun, hisobot davrida 596 milliard so‘mlik 375 ta amaliy, 54 milliard so‘mlik 48 ta innovatsion, 319 milliard so‘mlik 134 ta fundamental hamda Xitoy, Hindiston, Turkiya, Vengriya, Yaponiya va Belarus kabi davlatlar bilan umumiy qiymati 125,15 milliard so‘mlik 110 ta xalqaro qo‘shma loyiha hamkorlikda ro‘yobga chiqarilmoqda.

Bugungi kunga kelib, intellektual salohiyat mahsuli bo‘lgan g‘oya va innovatsiyalar bejiz qadrlanmayapti. Har qanday ilm-fan yangiligi bevosita mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilib, iqtisodiyotimizga naf keltirmoqda.

Ilm-fanni moliyalashtirishda “startap loyiha” tushunchasi paydo bo‘ldi. Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan startap ekotizimini rivojlantirish maqsadida bir qancha tanlovlar e‘lon qilingan.

Jumladan, 2023-yil davomida 9 ta tanlov natijasiga ko‘ra jami 43,7 milliard so‘mlik 54 ta startap loyiha moliyalashtirildi. 2022-yildagiga nisbatan o‘shish 57 foizni tashkil qildi.

Oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar tomonidan 275,1 milliard so‘mlik 486 ta ishlarni tijoratlashtirildi. Ushbu loyihalar doirasida 2023-yilda 175,48 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi, 106,5 milliard so‘mlik mahsulot sotildi hamda 99,64 milliard so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi.

Hududlardagi innovatsion faoliyat infratuzilma subyektlari soni 50 taga yetkazildi. Yoshlar texnoparklari tarmog‘i tashkil etilmoqda. Hozir yoshlar texnoparklari 10 ming yoshni jalb etgan.

Yoshlar texnoparklarida INNO X biznes inkubatori dasturlari bajarilmoqda. Ushbu

xorijiy investitsiya va kredit o‘zlashtirildi. 2022-yilda tashqi beg‘araz ko‘mak loyihalari doirasida 3,7 million dollar mablag‘ o‘zlashtirilgan bo‘lsa, 2023-yil yakuni bo‘yicha bu ko‘rsatkich 8,3 million dollarni tashkil etdi.

Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlashda tizimli ishlar olib borilmoqda.



dasturlar hududlardagi yoshlarning 280 ta startap loyihasi shakllantirilishiga ko‘maklashgan.

Ilm-fan va innovatsiyalar sohasiga xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlarini jalb etish maqsadida 2023-2025-yillarda jami 65 million dollar, jumladan, 2023-yilda 18 million dollar xorijiy investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirish belgilangan.

2023-yilda 19,5 million dollar miqdorida

Ilm-fanga yoshlarni jalb qilishga qaratilgan islohotlar natijasida oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlariga 2017-2024-yillarda 21 ming 494 tadqiqotchi qabul qilindi. 2024-yil uchun ajratilgan kvotalar soni 5200 taga yetkazilgan, bu esa 2023-yildagiga nisbatan 1,2 barobar ko‘p.

Oliy ta’limdan keyingi ta’limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi joriy qilindi, stajyor-tadqiqotchi va izlanuvchilarning

yakka tartibdagi rejalari bajarilishiga oid hisobotlarni shakllantirish bo‘yicha hujjatlarining elektron almashinuvi tashkil etildi.

2023-yilda 234 nafar yosh olim 27 ta xorijiy davlatdagi (Belarus, Rossiya, Vengriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya, Italiya va boshqalar) nufuzli ilmiy muassasalarga qisqa muddatli stajirovkalarga yuborildi.

Ilmiy tashkilotlarning laboratoriya bazasini mustahkamlash uchun 67,92 milliard so‘mlik 143 turdagi uskunalar xarid qilindi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, innovatsiyalar kelajak, demakdir. Biz buyuk kelajakni innovatsion g‘oyalar asosida quramiz, bu maqsad esa, o‘z navbatida, innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyotga o‘tish orqali amalga oshirilishi tabiiy.

2018-yildan boshlab har yili o‘tkazib kelinayotgan “InnoWeek.Uz” xalqaro innovatsion g‘oyalar haftaligini ilm-fan va innovatsiya sohasida erishilgan natijalar sarhisobi sifatida ko‘rish mumkin.

2023-yilning 16-20-oktabr kunlari “InnoWeek.Uz-2023” innovatsion g‘oyalar haftaligi “Kreativ ta’lim va innovatsiyalar — yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosi” shiori ostida o‘tkazilgandi. 2024-yilda mazkur haftalik 14-16-noyabr kunlari “Barqaror rivojlanish uchun innovatsiyalar” shiori ostida o‘tkazilishi rejalashtirilmoqda.

Bularning barchasiga topshiriqlarning o‘z vaqtida, samarali va sifatli ijrosi ta’minlangani natijasida erishilgani ayni haqiqat.

Innovatsiyalarni rivojlantirish uchun jamoaviy ish va shaxsiy mas’uliyat talab etiladi. Tartib va intizom innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, samarali muloqot va jamoa ichidagi ishlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Shu ma’noda, “Ijro intizomi — islohotlar garovi” tamoyili asosida tashkil etilgan har qanday ish yuqori natijalarga olib kelishiga aslo shubha yo‘q.

Nuqtayi nazar

SOG‘LOM RAQOBAT

Har qanday jamiyat va davlatda monopoliyaga qarshi muayyan tuzilmalar yaratilib, ta’sirchan choralar qo‘llaniladi. Bundan ko‘zlangan maqsad monopoliyalar korxonalar o‘z mavqeidan foydalanib, bozorda ustunlikka ega bo‘lmashini ta’minlashdir. Sog‘lom raqobat iqtisodiyot rivoji va odamlar farovonligiga xizmat qiluvchi eng muhim vosita hisoblanadi. Bu haqda Prezidentimiz joriy yilning 5-avgust kuni raqobatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar taqdimoti bilan tanishish chog‘ida alohida ta’kidladi.



IQTISODIY O‘SISH VA TURMUSH FAROVONLIGIGA XIZMAT QILADI

Taqdimotda qayd etilganidek, so‘nggi besh yilda mamlakatimizda 25 dan ortiq tovar bo‘yicha raqobat muhiti yaxshilangan. 7 ta faoliyat turi bo‘yicha raqobatni chekllovchi ekskluziv huquqlar bekor qilingan. Davlat ishtirokidagi korxonalar 42 foiz kamayib, tadbirkorlik subyektlari soni 1,6 barobar ko‘paygan. O‘tgan yili “Raqobat to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilinishi esa bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirishga xizmat qildi. Chunki shu qonun asosida mas’ul tashkilotlar vakolatlari kengayib, ko‘riladigan choralar ta’sirchanligi oshdi. Lekin bular hali yetarli emas. Qilinadigan ishlar talaygina. Davlatimiz rahbari taqdimotda ushbu jihatga alohida e’tibor qaratganining boisi ham shunda. Shundan kelib chiqib, hozir “2024-2028-yillarga mo‘ljallangan raqobatni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror loyihasi ustida ishlanyapti.

Raqobat yo‘nalishida konsepsiya yaratish g‘oyasi bir-ikki kun yoki bir-ikki oyda shakllanib qolgan yo‘q. Bunga yillar davomida tayyorgarlik ko‘rildi.

Xo‘sh, konsepsiyada qanday o‘zgarish yoki yangiliklar bo‘ladi? U sizni bizga nima beradi? E’tiborlisi shundaki, bu orqali, avvalo, raqobat rivojlanishi indeksi hisoblab borilishi natijasida raqobat rivojlanmagan sohalar aniqlanib, mavjud to‘siq va muammolar bosqichma-bosqich hal etiladi. Tadbirkorlik subyektlarining bozorlarga erkin kirishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar, xususan, ortiqcha talablar, qiyinlashtiruvchi normalar bekor bo‘ladi. Ruxsat beruvchi jarayonlar va litsenziyalarni javobgarlikni majburiy sug‘urtalash bilan almashiriladi. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish choralari davom ettiriladi.

Davlat organlari axborot tizimlarini o‘zaro integratsiya qilish orqali ijtimoiy ahamiyatga

ega mahsulotlar narxlarini shakllanishi janjirining barcha bo‘g‘inlari (ishlab chiqarish yoki import — birja — ulgurji — chakana savdo) raqamli monitoringi yuritiladi. Raqobatni rivojlantirishning samarali mexanizmlari yaratiladi. Xususan, energetika, neft-gaz, suv xo‘jaligi, yo‘l qurilishi, temir yo‘l va aeroport xizmatlari kabi qator sohalarida 17 turdagi davlat monopoliyasi bosqichma-bosqich tugatiladi. Davlat xaridlarida raqobatga zid harakatlarning oldi olinib, jarayon shaffofligi ta’minlanadi. Davlat yordamini berishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilib boriladi, kamida 10 ta ekskluziv huquq bekor qilinadi. Shu maqsadda 2024-yilda raqobatni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha 12 ta banddan iborat “yo‘l xaritasi” tasdiqlanmoqda.

Taqdimotda to‘g‘ridan to‘g‘ri davlat xaridlari ko‘lami qisqartirilishi ham aytib o‘tildi. Bu nima degani? Buni tushunish uchun sal oldinroqqa nazar tashlash kerak. Gap shundaki, davlatimiz rahbarining 2018-yil 27-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati tasdiqlangan. Ushbu ro‘yxatdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar asosida xarid qilinishi mumkin. Jumladan, o‘tgan yili respublika bo‘yicha jami 253,3 trillion so‘mlik davlat xaridlari amalga oshirilgan bo‘lsa, shundan 138,3 trillion so‘mlik xaridlari, ya’ni 54,6 foizi to‘g‘ridan to‘g‘ri, raqobatsiz shaklda bajarilgan.

Ayni paytda bu boradagi raqobatni ta’minlash, davlat buyurtmachilari uchun qulay

imkoniyatlar yaratish, shuningdek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Prezidentimizning “Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni loyihasi ishlab chiqilgan. Loyihada qator yangiliklar mavjud. Masalan, davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati 48 tadan 17 tagacha qisqartirilmoqda.

Shuningdek, davlat buyurtmachisi tomonidan eng maqbul takliflarni saralab olish yo‘li bilan xarid qilinishi mumkin bo‘lgan 31 ta tovar (ish, xizmat)lar ro‘yxati tasdiqlanyapti.

Mazkur ro‘yxatda nazarda tutilgan tovar (ish, xizmat)lar xaridi xarid komissiyasi ishtirokizis o‘tkazilishi mumkin. Bunda g‘olib davlat buyurtmachisi tomonidan ochiq axborot manbalaridan olingan ma’lumotlarni solishtirish va (yoki) tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) salohiyatini yetkazib beruvchilaridan takliflarni o‘rganish yo‘li bilan aniqlanadi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish, xarajatlarning to‘g‘ri taqsimlanishi va adolatlilik sarflanishiga erishishdir.

Aksariyat mamlakatlarda tabiiy monopoliyalar faoliyatini mustaqil bozor regulatoryorlari tartibga soladi. Ularning asosiy jihatida davlat aralashuvizis faoliyat yuritishidir. Masalan, Buyuk Britaniyada

14 ta sanoat regulatoryori tarmog‘i, Fransiya regulatoryori sifatida tartibga soluvchi 9 ta tizim, AQSHda turli sohalarida 20 dan ortiq, Germaniyada 8 ta regulatoryor, Shveysariyaning 6 ta tarmog‘ida, asosan, regulatoryor vazifasini bajaruvchi tuzilmalar, Yaponiyada 6 ta yirik mustaqil bozor regulatoryori mavjud.



Xalilillo TO‘RAXO‘JAYEV,
Raqobatni rivojlantirish va
iste’molchilar huquqlarini
himoya qilish qo‘mitasi raisi

O‘zbekiston iqtisodiyotiga yaqin davlatlar tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Turkiyada Energiya bozorini tartibga solish organi, Latviyada Kommunal xizmatlar bo‘yicha komissiya, Gruziyada Energetika va suv ta’minotini tartibga solish bo‘yicha milliy komissiya, Armanistonda Yagona davlat xizmatlarini tartibga solish komissiyasi mavjud. Xuddi shunday, endi bizda ham elektr energiyasi,

tabiiy gaz, temir yo‘llar, fuqaro aviatsiyasi, aeroport xizmatlari, avtomobil yo‘llari hamda telekommunikatsiya sohalarida mustaqil bozor regulatoryorlari institutlari bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Natijada 2025-yil 1-yanvargacha qadar Raqobat qo‘mitasining tabiiy monopoliya subyektlarining tariflarini tartibga solish va nazorat qilish funksiyalari mustaqil bozor regulatoryorlariga o‘tkaziladi. Ayni paytda tabiiy monopoliyalar sohasida birinchi bo‘lib energetika bozori regulatoryori — O‘zbekiston Respublikasi Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi tashkil etilib, samarali faoliyat yuritmoqda.

Tabiiy monopoliyalarni mustaqil bozor regulatoryorlari orqali boshqarishning ijobiy jihatlari bor. Avvalo, tenglik va adolat ta’minlanadi. Ta’sirchanlik oshadi. Regulatoryorlar tabiiy monopoliyalar faoliyatini kuzatish va ularning narxlarini hamda xizmat sifatiga ta’sirini baholash imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, bozordagi raqobatni rag‘batlantiradi. Mustaqil regulatoryorlar davlat siyosatini samarali amalga oshirishda yordam beradi. Chunki ular mustaqil qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo‘ladi. Bu bilan davlat aralashuvi va nazorati kamayadi. Iste’molchilar huquqlari ta’minlanadi. Regulatoryorlar iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, manfaatlarini ko‘zlab qarorlar qabul qilish uchun mas’ul hisoblanadi. Shaffoflik ortadi. Bu esa jamoatchilikning ishonchini oshiradi. Innovatsiyalar rag‘batlantiriladi. Mustaqil regulatoryorlar raqobatni rag‘batlantirish va tabiiy monopoliyalar faoliyatini nazorat qilish orqali bozordagi dinamikani yaxshilash imkonini beradi. Umuman, ularning tashkil qilinishi strategik bo‘lgan sohalarida raqobatni yanada kuchaytirish, monopollashuv darajasini

pasaytirish hamda investitsiyalar jalb qilishga imkoniyat yaratadi.

Taqdimotda, shuningdek, keyingi uch yilda raqobatga zid ikki mingdan ortiq hujjat aniqlangan, ularning asosiyi hududlarga tegishli ekan aytiladi. Shu bois, qo‘mitaning hududiy boshqarmalari ishini jonlantirish belgilandi. Qo‘mitamizda ushbu yo‘nalishdagi ishlar boshlab yuborilgan. Misol uchun, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablari buzilgan taqdirda ularning mansabdor shaxslariga ma’muriy javobgarlik joriy etiladi. Qo‘mitaning hududiy organlari mutaxassislari milliy va xalqaro darajada o‘qitiladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan hujjatlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi masofadan turib doimiy ravishda monitoring qilib boriladi.

“Raqobat to‘g‘risida”gi qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi qaroriga asosan, faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta’minlash, ularning buzilishi xatarlarini aniqlash va oldini olish maqsadida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlari, tovar yoki moliya bozoriga ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda ustav fondining 50 foizi va undan ortig‘i davlatga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar faoliyatida monopoliyaga qarshi kompleks tizimi joriy etilmoqda. Bugungi kunga qadar jami 245 ta, shundan

69 ta tabiiy monopoliya subyektida, 74 ta tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektda, 35 ta mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organida, 31 ta respublika ijro etuvchi hokimiyat organida hamda davlat ishtirokidagi 36 ta korxonada monopoliyaga qarshi kompleks tizimi to‘liq joriy etildi va mazkur tizim faoliyati uchun mas’ul xodimlar tayinlandi.

Umuman olganda, korxonalarda monopoliyaga qarshi kompleks tizimi ijobiy natija bermogda. Misol uchun, tanlov (tender) savdolarida raqobat muhiti ta’minlangani o‘rganilganda, 49 holatda ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro kelishib olingan harakatlar mavjudligi aniqlangan. Mazkur savdolarini bekor qilish hamda qayta tashkil etish bo‘yicha tegishli takliflar berilishi natijasida qonun buzilishining oldi olingan. Ikkiti holatda yuqori likvidli va monopoliyadagi mahsulotlar belgilangan grafik asosida birja savdolariga qo‘yilishida kamchiliklarga yo‘l qo‘yg‘an xodimlarga nisbatan ta’sirchan choralar ko‘rilgan. Raqobat qonunchiligi talablari buzilishlari haqida murojaatlarni tezkor qabul qilish maqsadida 20 dan ortiq korxonaning rasmiy veb-saytlarida “Raqobat cheklanishi va kartel kelishuvlari haqida xabar ber” sahifalari yaratilgan.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Zamon bilan hamnafas

Ma’naviyat-ma’rifat, xususan, adabiyot va san’at rivoji davlat va jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir qiladi. Bunga tarixdan ko’plab misollar keltirish mumkin. Zero, adabiyot va san’at o’z oldiga axloqiy, ruhiy va jismoniy tomondan yetuk bo’lgan komil shaxs tarbiyasini maqsad qiladi. O’z navbatida, bunday fazilatga ega inson qaysi sohada faoliyat yuritmasin, iqtidori orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo’shadi.

Shu bois, mamlakatimizda mazkur sohaga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2023-yil 22-dekabr kuni bo’lib o’tgan kengaytirilgan yig’ilishida Prezidentimiz “Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o’n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!” deya sohaning ahamiyatini ko’rsatib bergan edi.

Bugungi islohotlarning asosiy maqsadi, shubhasiz, inson qadrini ulug’lashga qaratilgan. Ushbu g’oyaning san’atdagi tarannumi esa uning ta’sirchanligini yanada oshiradi.

Aynan mazkur ezuu g’oya asosida har yili davlat buyurtmasi berilmoqda. Natijada yil davomida 40 ta yangi spektakl, 40 ta yangi musiqa asari tomoshabinlarga taqdim etiladi. Bundan tashqari, internet va ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari



Qozon davlat madaniyat instituti, Sankt-Peterburg kino-televideniye instituti va boshqalarni bunga misol keltirish mumkin.

Hozirgi kunda institutda Koreya Respublikasi hamda qozog’istonlik professor-o’qituvchilar faoliyat yuritib, talabalarga ta’lim berish barobarida o’z mamlakati tajribalari bilan ham o’rtoqlashmoqda.

Institutning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, soha bo’yicha tadqiqotlarni yanada jadallashtirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Oliy ta’lim muassasasi huzurida san’atshunoslik fanlari bo’yicha ilmiy daraja beruvchi kengash faoliyat ko’rsatyapti.

Institut ilmiy salohiyatini yuksaltirish yuzasidan kelgusida amalga oshirilishi lozim bo’lgan ishlar ham belgilab olindi. Zero, har qanday sohaning taraqqiyoti uning ilmiy-nazariy asosi mustahkamligi bilan chambarchas bog’liqdir.

Umuman olganda, bugun institutda yurtimizdagi keng ko’lamli islohotlarga munosib faoliyat yuritish, ularni yurakdan his etadigan, ijodi orqali tarannum qiladigan yosh ijodkor

SAN’AT VA MADANIYAT RAVNAQI

taraqqiyot va xalq ehtiyoji mahsulidir

Mamlakatimiz tarixida ilk bor 2021-yil 20-yanvarda “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to’g’risida”gi qonun qabul qilindi. Unga ko’ra, madaniyat va san’at muassasalari, ijodiy uyushma hamda birlashmalarning huquqiy maqomi belgilandi. Ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yaratildi.

Bundan tashqari, Prezidentimizning sohaga oid 60 ga yaqin farmon va qarori, hukumatning 150 dan ziyod qaror va farmoyishi qabul qilindi. Natijada soha moddiy va huquqiy jihatdan yanada takomillashdi.

Mamlakatimizda 15-aprel sanasi Madaniyat va san’at xodimlari kuni etib belgilanishi ham tarixiy hodisa bo’ldi. Shuningdek, “Bahor” raqs ansambli, Davlat filarmoniyasi, Davlat simfonik orkestri kabi 20 dan ortiq muassasa faoliyati yo’lga qo’yildi. Bundan tashqari, 11 ta yangi muzey, 2 ta teatr, 28 ta bolalar musiqa va san’at maktabi ochildi. 2022-2023-yillar davomida Qorag’alpog’iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatida baxshichilik san’ati milliy ekspozitsiyalari tashkil etildi. Mazkur san’at turiga tegishli bo’lgan 500 ga yaqin qadimiy eksponat va boshqa ma’lumotlar joylashtirildi. Bularning barchasi yosh avlodni milliy san’atimiz va madaniyatimiz ruhida takomillashdi.

Shu bilan cheklanib qolmay, dunyoga o’zligimizni namoyon etmoqdami. Buni yurtimizda muntazam ravishda o’tkazilayotgan Xalqaro maqom san’ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san’ati, “Sharq taronalari”, “Lazgi” kabi ko’plab nufuzli festivallari misolida ko’rishimiz mumkin. Ushbu tadbirlarda o’zbek san’atkorlari, ayniqsa, yosh ijodkorlar o’z mahoratini jahon darajasida namoyon qilib, o’zbek san’atini yanada yuksaltirmoqda. Shuningdek, boshqa yurt vakillarining ham san’atidan bahramand bo’lib, tajriba ortiryapti.

Har qanday soha taraqqiyotida moddiy jihatdan qo’llab-quvvatlanish, soha xodimlariga yaratilgan shart-sharoit muhim. Shuni inobatga olgan holda, 2023-yilda birgina madaniyat va san’at sohasini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash hajmi 2017-yildagiga nisbatan 5 karra oshdi.

Madaniy-ma’rifiy sohaning moddiy ta’minotiga ko’maklashayotgan turli ko’ngilochar muassasalar, kutubxonalar, ilm-fan va ijodga ixtisoslashgan to’garaklar tashkil etayotgan vatandoshlarimiz tobora ko’payib borayotir. Ular, shubhasiz, ma’rifatli davlat qurish, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlik muhitini yaratishga munosib hissa qo’shmoqda.

Milliy an’ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylash, boyitish maqsadida maqom, baxshichilik va askiya san’ati markazlari tashkil etildi. Ushbu jarayonlar orqali xalqimiz turmush tarzining ajralmas bo’lagiga aylangan bu kabi umri boqiy san’at turlarining yanada omallashishi uchun zamin yaratilmoqda.



Nodirbek SAYFULLAYEV,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori, professor

uchun yuksak badiiy saviyadagi 100 ta audiovizual asar yaratishga homiylik qilinadi. Mazkur



yo’nalishda milliy kuylardan iborat musiqiy albomlarni tayyorlash va omallashtirish ishlari hamda atqoli ijodkorlarning ijodiy uchrashuvlariga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Bu o’zgarishlar, bir tomondan, yurtdoshlarimizni sifatli san’at asarlari bilan xushnud etadi. Ikkinchi tomondan, sohaning

rivoji, eng muhimi, ko’plab ish o’rinlari yaratilishi, ijodkorlarning yanada qo’llab-quvvatlanishi uchun imkoniyatlar taqdim qiladi.

Yurtimizning barcha hududlarida istiqomat qilayotgan insonlar uchun aniq belgilangan reja asosida “Madaniyat karvoni” shaklida konsert-tomosha tadbirlari va teatr jamoalari gastrollari tashkil etilmoqda. Natijada o’lkamizdagi har bir hudud, har bir xonadonga san’at bilovsita (internet, televideniye va radio orqali) emas, balki bevosita jonli tarzda kirib borishiga zamin yaratildi.

Shularning o’ziyoq mamlakatimiz madaniyati va san’ati tarixiy rivojlanish bosqichida ekanidan dalolat. Jamiyat taraqqiyotiga, kishilar ijtimoiy ongiga, pirovardida insoniyat taqdiriga madaniyat kabi kuchli ta’sir etuvchi omil bo’lmasa kerak. Chunki madaniyat insonning intellektual va ruhiy holatini tartibga keltiradi. U jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotidagi faoliyatini muvofiqlashtiradigan muhim hodisa hisoblanadi. Qolaversa, madaniyat inson, uning ongli faoliyati, mehnat yaratuvchanligi, odamlar orasidagi faollik darajasi bilan ham chambarchas bog’liq.

Jamiyat rivojlanar ekan, madaniyat va san’atning o’rni va roli ham shunga mos darajada oshaveradi. Bugun O’zbekistonda ma’rifatli davlat barpo etilmoqda. Bunday davlatning poydevori esa, shubhasiz, madaniyat-ma’rifat hamda adabiyot va san’at bilan yanada mustahkamlanadi. Bu islohot va yangilanishlardan asosiy maqsad ham

ijobiy ta’sir qiladi. Shu ma’noda, madaniyat va san’atning jamiyat a’zolarini ijtimoiylashuvdagi o’rmini ham alohida qayd etish kerak.

Madaniyat va san’at, xususan, teatr tomoshasi, kino mahsulotlari, kuy-qo’shiqlar har birimizning ruhiyatimiz va kayfiyatimizga ta’sir etadi. Masalan, teatring asosiy vazifasi insonlarni larzaga solish orqali poklash, ya’ni katarsicdir. Jadid bobomiz Mahmudxo’ja Behbudiy “Teatr bu — ibratxonadir”, deya ta’kidlaganida haq gapni ayrgan edi. Shundan ham bilimb turibdiki, san’atning ta’sir kuchi va ko’lami juda keng. U, avvalo, inson ruhiyatini tarbiyalaydi.

Bugun yurtimizning jahondagi salobatiyu salohiyatiga monand yangi san’at va madaniyatini yaratish, ayniqsa, yosh iste’dod egalarini kashf etishda O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining ham alohida o’rni bor.

Ushbu ta’lim dargohi yurtimizda aktyorlik, rejissyorlik, kinoteleoperatorlik, san’atshunoslik, folklor ijrochiligi, milliy qo’shiqchilik, xalq cholg’ulari ijrochiligi, madaniyatshunoslik, kutubxonashunoslik hamda madaniyat va san’at menejmenti ta’lim yo’nalishlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi yetakchi oliy ta’lim muassasasidir. Bu yerda o’z ijodiy va ilmiy faoliyati bilan nafaqat yurtimiz, balki jahon san’ati rivojiga yetishishi hissa qo’shgan ustoz san’atkorlar va yosh umidli professor-o’qituvchilar talabalarga san’at sirlaridan saboq berib kelmoqda.

Bugun institutda yosh ijodkorlar iste’dodini namoyon qilishi, o’z ustida ishlab, yetuk ijodkor bo’lib yetishishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda. O’z navbatida, ijodkor yoshlar ham bugun munosib ravishda ko’plab yuqori natijalarga erishib kelyapti.

2023-2024-o’quv yilida respublika va xalqaro darajada o’tkazilgan fan olimpiadalari, festivallar va ko’rik-tanlovlarda institutda tahsil olayotgan 40 dan ziyod talaba g’oliblikni qo’lga kiritdi. Yana 50 dan ortig’i faxrli o’rinlarni oldi. Xususan, 1 talaba O’zbekiston Prezidenti stipendiyasiga, 1 nafari Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasiga, 2 nafari esa Navoiy nomidagi davlat stipendiyasiga sazovor bo’ldi.

Yana bir iqtidor egasi, kino, televideniye va radio san’ati fakulteti kinoteleoperatorlik ta’lim yo’nalishi 4-bosqich talabasi Azizbek Sobitov “Mard o’g’lon” davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Bo’lg’usi ijodkorning institutga birinchi qadami, albatta, kirish imtihonlaridan boshlanadi. Shuni inobatga olgan holda, 2024/2025-o’quv yili qabulida institut jamoasi jarayon adolati va shaffof o’tishi uchun barcha choralarini ko’rdi. Imtithon o’tkazish uchun mo’ljallangan auditoriyalar ta’mirlanib, zaruriy jihozlar bilan ta’minlandi.

Kasbiy-ijodiy imtithonlar institut rasmiy veb-saytida onlayn tarzda namoyish etildi. Abituriyentlarning ota-onalari va yaqinlari uchun alohida joy ajratilib, jarayonni kuzatib borishga barcha sharoitlar yaratildi.



Abituriyentlarning ijodiy, amaliy ishlarini baholashga komissiya raisi sifatida taniqli san’atshunos olimlar, faxriy unvonga ega bo’lgan mashhur teatr va kino rejissyorlari, aktyorlar, xonandalar, sozandalar, kinoteleoperatorlar jalb etildi. Imtithon natijalari shu kunning o’zida institut veb-sayti orqali e’lon qilib borildi. Qabul jarayonlarida korupsiya, tanish-bilishchilik kabi salbiy holatlar kuzatilmaligi uchun tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda barcha zaruriy choralar ko’rildi.

Oliy ta’lim muassasalariga qabul jarayonlari jamiyat hayotida alohida muhim hodisa, desak yangilashmaymiz. Shuning uchun jarayonning barcha ishtirokchilari zimmasidagi ulkan mas’uliyatni teran anglagan holda o’zlariga yuklatilgan vazifaga jiddiy e’tibor bilan yondashdi.

Har qanday sohada zamon bilan hamnafas bo’lish, jamiyat ehtiyojlariga javob bera olish muhim ahamiyat kasb etadi. San’at va madaniyat sohasi ham bugun tinimsiz rivojlanib, yangilanib bormoqda. Ushbu ehtiyoj va talablarni inobatga olib, joriy o’quv yilida institutda san’at jurnalistikasi, turizm va mehmondo’stlik, inson resurslarini boshqarish kabi yangi yo’nalishlar ochildi.

Barcha sohalar rivoji uchun xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish va kengaytirish muhim ahamiyatga ega. San’at va madaniyat ham milliy va umumbashariy qadriyatlariga tayanadi. Xalqaro aloqalarga ehtiyoj sezadi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, hamkorlik, savdo, ijod, ilm-fan va san’at, insoniy g’oyalat ustuvor bo’lgan joyda egzgulik ko’payadi, xalqlar farovon va o’zaro ahiyashadi.

Bugungi kunda institut Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Gruziya, Ozarbayjon, Belarus, Qozog’iston, Tojikiston kabi mamlakatlarning 60 dan ortiq oliy ta’lim muassasasi bilan hamkorlik shartnomalari, kelishuv memorandumlari imzolagan. Xususan, Rossiya teatr san’ati instituti,

O’zbek san’ati va madaniyati sohalarida ro’y berayotgan salmoqli o’zgarishlarni bitta maqolada qamrab olish imkonisiz. Zero, so’nggi yillarda umumbashariy va milliy an’analarni birlashtirgan hamda xalqimizning orzu-umidlarni mujassam etgan yangi O’zbekistonning yangi madaniyati va san’ati shakllanib bormoqda.

Bugun yurtimizdagi har bir o’zgarish va yangilanish xalqimizning xohish-istaklari asosida amalga oshirilmoqda. Jumladan, san’at va madaniyat sohasidagi jarayonlar ham aynan yurtdoshlarimizning ehtiyoji va talabi mahsulidir.

Bir so’z bilan aytganda, san’at va madaniyat bugun yanada omallashtirib, yangi O’zbekistonda kechayotgan islohotlarga hamohang tarzda rivoj topib, ularning mazmun-mohiyatini xalqimizga teranroq yetkazish uchun xizmat qiluvchi muhim bo’g’inga aylanmoqda.



YOSHLAR YERDAN QANDAY FOYDALANYAPTI?

Ishsiz, doimiy daromad manbaiga ega bo’lmagan yigit-qizlarning dehqonchilik, tadbirkorlik qilishi uchun joriy yilda 60 ming 500 gektar yer ajratib berildi.

Xo’sh, yoshlar ajratilgan yerdan qanday foydalanyapti? Qo’lida hunari bo’lmagan yigit-qizlar dehqonchilik ilmini kimdan o’rganyapti? Bahorda ajratilgan yerdagi ekinlardan bugun hosil olinayaptimi? Ushbu savollarga Xorazm viloyatidagi ishlar misolida javob topishga harakat qilidik.

— Prezidentimizning joriy yil fevral oyida Xorazm viloyatiga ikki kunlik tashrfi biz, xivaliklarning ham uzoqni ko’zlagan maqsadli dasturlarimizga yo’l ochildi. Davlatimiz rahbari aholini tadbirkorlikka jalb etishi, yoshlarni mehnatga, kasbga o’rgatish muhimligini, buning uchun barcha shart-sharoit yaratib berilishini alohida ta’kidlagandi, — deydi O’zbekiston mahallalar uyushmasining Xiva tumani bo’limi boshlig’i Sanjar Meyliyev. —

Davlatimiz rahbari topshirig’i ijrosi doirasida Xorazm viloyatida yoshlarga 3 ming gektar, Xiva tumanida esa 200 gektar yer ajratib berildi. “Mahalla yettiligi” taklifi bilan “Yoshlar daftari” ro’yxatida turgan, ishsiz, daromadi yo’q 1001 yoshga avval yer ilmi o’rgatilib, ekin ekish bo’yicha ko’nikmalar shakllantirildi. Tumanimizdagi 34 ta mahallaning barchasida bugungi kunda tub o’zgarishlar yuz ko’rsatyapti. Xususan, Istiqloil mahallasida ayni damda 10 ta ishlab chiqarish korxonasi, 30 ga yaqin xizmat ko’rsatish shoxobchasi va bir qancha fermer xo’jaligi mavjud. Shu yil fevral oyi oxiri, mart oyi boshlarida mahalladagi ishsiz 21 yoshga 4,2 gektar yer ajratib berilgan edi. Yosh dehqonlar shu kunlarda hosilni yig’ib-terib olmoqda. Birinchi hosil, birinchi

Hududlar hayoti



daromad ularning nafaqat ro’zg’origa baraka beradi, balki oilasiga doimiy tinchlik va o’ziga bo’lgan ishonchni ham orttiradi.

Istiqlol mahallasida yashovchi Ozoda Ko’palova bilan telefon orqali suhbatimiz maroqli bo’ldi. Necha yillardan buyon xorijda ishlab yurgan turmush o’rtog’i endi yonida tirgak ekanini, farzandlari esa to’liq oila bag’rida yayrab yashayotganini aytganda, yoshgina ayolning hayotida xursand bo’lsa arzigulik yaxshilik va yangilik, deya biz ham quvondik. Ozodaga ham foydalanishi va ro’zg’orini butlashi uchun yer berilibdi. Bugun u ishsiz uy bekasi emas, balki yer egasi, daromadli dehqon.

— Doimiy ishi bo’lmagan uchun turmush o’rtog’im chetga ketib, yillab o’sha yerda ishlardi. O’g’lim va qizim bilan javdirab qolardik. Ishlay desam, tuzukroq ishim, foydalanishga esa tomorqamiz yo’q edi. Ko’zimiz yo’lda, ko’nglimiz xavotirda, halovatsiz yashardik. Xudoga shukr, mana, tirikchilik qilishimiz, to’kin va to’kis yaxshimiz uchun yer ajratib berildi. Endi oilamizda ham doimiy xotirjamlik bo’ladi, — deydi Ozoda.

Olloshukur Masharipov ham ishsizlik tufayli bir qancha muddat o’zga yurtida ishlagan va ko’p mashaqqat torgan. Bugun esa o’z yeriga ega yosh dehqon, nasib etsa, kelgusida tadbirkor bo’lmoqchi. Telefon orqali qilgan muloqotimizda u ham hayotidan mamnun bo’lib yashayotganini aytib, bizni yaqinda bo’ladigan nikoh to’yiga lufan taklif qildi.

— Davlatimiz tomonidan qilingan yaxshi yangilik hayotimga fayz olib kirdi, — deydi

Olloshukur. — To’g’risini aytсам, o’z yerim bo’ladi deb xayol ham qilmagandim. Yurtimizda kechayotgan o’zgarishlar men kabi ishsiz, o’zini qay eshikka urishini bilmay yurgan yoshlar uchun ajoyib imkoniyat. O’zim ham shu yil bahor fasli boshida yerli bo’lib, uzm makkajoy’xori ekdim. Xudo xohlasa, yaqin kunlarda hosilni yig’ishtirib olamiz. Asosiysi, endi o’zga yurtlarda xor bo’lib, pul topaman deb ish izlab yurishimga hojat qolmadi. Bundan ota-onam va jigarlarim ham xursand. Yaxshi yangilarga bois, shaxsiy hayotimda katta o’zgarish kuzatilyapti, avgust oxirlarida to’yim bo’ladi, uylanyapman. To’yga kelinglar!

Oiladagi tinchlikka, bag’ri butunlikka nima yetsin. “O’z uying, o’lan to’shaging” maqoli bejiz aytilmagan. Mamlakatimizda kechayotgan istiqbolli o’zgarishlar, islohotlar bois, ishsiz yoshlar ishli bo’lmoqda, buning natijasida ularning oilasiga halovlat inmoqda. Xorijda ishlab yurgan yigitlar yurtga qaytyapti. Erkagi bor uyda osoyishtalik hukmron bo’ladi. Davlatimiz tomonidan yoshlarga berilayotgan yerning har bir qarichi xosiyatli va barakali. Negaki yoshlar ekinni oila a’zolari bilan hamjihatlikda ekadi, parvarishlaydi, mehnati evaziga to’kin hosil oladi, eng muhimi, yer minnatli emas. Bu esa yoshlarimizning turmush farovonligi oshib, qadami ildamlashib, o’zlari har sohada ilg’orlashib borayotganidan darak, albatta.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri

Bugun zamonaviy tahdidlarga qarshi munosib kurashishda milliy kontentning oʻrni juda muhim. Shu orqali yoshlarni milliy va umuminsoniy gʻoyalarga oshno qilib ulgʻaytirish mumkin. Aks holda, tashqaridan kirib keladigan turli axborotlar yoshlar tafakkuridagi boʻshliqni toʻldiradi. Chunki bugun farzandlarimiz axborot oqimini istagancha qabul qilayпти. Toʻgʻri, buni taqtiqlashning iloji yoʻq. Shu bois, yot axborot bilan raqobatlasha oladigan milliy kontentni kuchaytirish kerak. Bu oʻrinda ishni bola esini taniganidan koʻradigani — multfilmlardan boshlash maqsadga muvofiq.

Oʻzlikni anglatish pallası



zarurati mavjud. Intilishi, fikri bor yoshlarni qoʻllab-quvvatlaymiz. Birinchi navbatda, talabalarni amaliyotga jalb qilish zarur. Turli studiyalar bilan hamkorlikni rejalashtirganimiz. Kinematografiya agentligiga turli loyihalarni taqdim qilib boryapmiz. Ajdodlarimizning bolaligi, yangi texnologiyalar, ilmiy-ommabop, hujjatli animatsion filmlar janri, turi, texnologiyasiga qarab erkin ijodiy muhit yaratish yoʻlidamiz. Talabalar uchun oʻquv seminarlari oʻtkazib boramiz. Taniqli studiyalar vakillari, tajribali mutaxassislarni chaqirib, suhbatlar uyushtirib turamiz. Ular yoshlarga maslahat beradi. Studiyalar,

Multiserialning 1-2-qismlari taqdimotidan soʻng ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar bilan qiziqdik. Ularning baʼzilarini aynan keltirishni joiz topdik: “Multfilmdagi qoʻshiq aynan milliy kontent uchun bastalangan”, “Multfilmda milliylik va samimiylık aks etgani nur ustiga nur boʻlibdi”, “Juda zoʻr, bogʻchalarda tezroq targʻib qilish kerak”, “Haqiqiy milliy kontent boʻlibdi! Ishlaringiz bardavom boʻlsin! Bunday kontentlar yaratishdan charchamang”, “Endi bolalarimiz uchun milliy qahramonlar paydo boʻladi”.

Modomiki, bu loyihadan oʻzligimizni tanitish maqsad qilingan ekan, har bir detalda milliylikimiz qurib tursa, farzandlarimiz qalbıga milliy ruh muhrlanadi. Ular ham multfilm qahramonlari singari kiyinaman desa, milliy kiyimlarimiz yana urfga kirsə, ne ajab. Chunki hozirgi bolalar oʻrgimchak odam surati bor kiyimlarni yaxshi koʻradi. Undan koʻra milliy liboslarimizni kiyishsa, qanday yaxshi!

Yana bir onaning fikri ijodkorlar ruhini koʻtargani, ularga kuch bergani aniq: “1,5 yashar oʻgʻlim bilan koʻrdim. İlk bora milliylik taʼsirdan hayratlandim. Judayam ajoyib chiqibdi. Kuy haqiqiy milliylikka yoʻgʻrilgan. “Cocomelon”, “Bebefinn”, “Nasty” kabi dunyo reytingida oldinda ketayotgan multfilmlarga bunaqa reaksiya bildirmasdi bolam”.

Toʻgʻri, ish xatosiz boʻlmaydi. “Bek va Lola”da ham ayrim kamchiliklar bor. Muhimi, mazkur yoʻnalishda oldinga silijish boʻldi.

Oʻzbek animatsiyasi istiqboli qanday?

Mutaxassislər bilan suhbatdan soʻng shunday xulosaga keldik: milliy animatsiya ravnaq topishi, avvallo, jamiyatda kreativ sanʼat turlari rivojiga xizmat qiladi. Ijodkor yoshlar uchun yangi ish oʻrinlari paydo boʻladi. Eng muhimi, oʻzbek madaniyati jahon miqyosida keng targʻib qilinadi. “2022—2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmonda ham milliy multiplikatsiya industriyasini shakllantirish, animatsion filmlar ishlab chiqishga yosh multiplikator va animatorlarni keng jalb qilish zarurligi alohida qayd etilgan. Bu borada imkon qadar ishonchli odim qoʻyilaypti. Jumladan, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti hamda Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti talabalari oʻrtasida “Yangi Oʻzbekistonning milliy animatsiya qahramoni” nomli animatsion filmlar loyihalari uchun ijodiy tanlov eʼlon qilindi. Kinematografiya agentligi tomonidan “Renessans” turkumidagi animatsion filmlar loyihasi doirasida “Amir Temur” hamda “Al-Xorazmiy” animatsion filmlari tayyorlandi. “Buyuk ipak yoʻli sarguzashtlari” turkumidagi “Shiroq afsonasi” hamda “Spitamen” nomli animatsion film loyihalari ustida ishlanyapti. Rossianing “Bazelevs” kinokompaniyasi bilan hamkorlikda Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq xalqlarining milliy satirik qahramoni Xoʻja Nasriddin Afandi haqidagi “Xoʻja Nasriddin” toʻliq metrajli animatsion filmi tayyorlanmoqda. Bundan tashqari, yana koʻplab shunday loyihalar bor.

Oʻzbek animatsiyasi istiqbolini yuqori baholash mumkin. Faqat multfilmlarimiz targʻibotini kuchaytirish zarur. Bunga ham alohida mutaxassislər kerak, aslida. Suhbatdoshlarimizning aytishicha, chet elda piar texnologiyasi yaxshi ishlaydi. Multfilming tizerlari, reklamasi faol targʻib etiladi. Natijada premyeraga koʻp tomoshabin boradi. Biz ham milliy kontentni koʻpaytirib, keyingi jarayon oʻz-oʻzidan jadallashadi.

MULTFILMLAR MILLIY KONTENTNI TARGʻIB ETSA...

— Bir yoshli boladan tortib, kattalargacha multfilm tomosha qiladi. Internetda tanlov juda koʻp va bolalar oʻzi tanlayapti. Oʻsha tanlovni oʻzimizning kontent bilan almashtirishimiz shart. Maktab, tabiat, umuman, har bir yoʻnalishda koʻp multiseriallar ishlashimiz kerak. Asosiy vazifamiz — multfilm orqali ilm, madaniyat, maʼrifat ulashish, — deydi Oʻzbekiston animatsion studiyalar assotsiatsiyasi raisi, rejissyor, animator Behzod Salomov. — Animatsiyaning taʼlim va tarbiya rivojıdagi oʻrni hisobga olsak, sohada kadrlar tayyorlash masalasi, raqobatbardoshlik yetarli emas. Ayni paytda davlat buyurtmalarini keskin koʻpaytirish kerak. Soha yetarlicha qoʻllab-quvvatlanishi zarur. Agar shunday boʻlmasa, bolalarimiz mazkur yoʻnalishda yetakchi boʻlgan davlatlar mahsulotlarini isteʼmol qilib ulgʻayadi.

Davlat mablagʻiga qarab oʻtirish kerak emas

Kinematografiya agentligi xodimi Davron Abdullayevning aytishicha, ish boshlaganiga 100 yildan oshgan Walt Disneyning hozirgi sarmoyasi 180 milliard dollardan oshadi. Kompaniya yiliga 10 milliard dollardan ziyod mablagʻ topadi. Walt Disney kompaniyasining aksariyat multfilmni oʻzimiz ham yaxshi eslaymiz: ularda begʻarazlik, begʻuborlik aks etgan. Biroq keyingi yillarda shunga oʻxshagan animatsion studiyalarda ishlab chiqarilayotgan multfilmlarning aksariyati milliylikimiz, tarbiyamizga munosib emas. Zararlilari xavotirlanarli darajada koʻp.

“Oskar” olgan multfilmlar ham 5-10 yillab ishlanadi. Ularda mavzu, qahramon topish muammo. Shuning uchun oʻzida boʻlmagan qahramonlarni yaratishga majbur. Masalan, oʻrgimchak odam. Bizda esa bu borada qiyinchilik yoʻq. Tariximiz juda boy. Nafaqat uzoq oʻtmish, balki yaqin tariximizdagi ulugʻ yozuvchilarimiz hikoyalarni animatsiya koʻrinishida yoshlarga taqdim etishimiz mumkin. Shunday qilsak, xorij multfilmlari oʻz-oʻzidan chetga chiqib qoladi. Biroq mablagʻ masalasi oʻylantiradi.



Munajat MOʻMINOVA, “Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Prezidentimizning 2021-yildagi “Kino sanʼati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi qarorida animatsiya va seriallar uchun har yili 12 milliard soʻm ajratilishi koʻzda tutilgan. Mazkur mablagʻning animatsiyaga tegishli qismi bosqichma-bosqich tanlovlar eʼlon qilgan holda gʻolib studiyalarga yetkazib berilyapti. Biroq bunga qarab oʻtirmaslik kerak. Tadbirkorlar bilan hamkorlik qilish ham maqsadga muvofiq. Chunki ishlalmon daromadini koʻpaytirishni istaydi. Bu esa ijodkor va tadbirkor oʻrtasida koʻprik vazifasini oʻtovchi produserlik markazlariga zarurat paydo qiladi. Produserlar bevosita yuristlarga tayanadi. Yuristlar ishtirokidagi faoliyat esa ijodkorni ham, tadbirkorni ham birdek qanoatlantiradi.

Eʼtibor bersangiz, xorij multfilmlari yakunida homiylik qilgan kompaniyalar, tadbirkorlar logotipi beriladi. Hammasi oz-ozdan hissa

qoʻshgani evaziga katta mablagʻ hosil boʻladi. Ularni qanday birlashtira olish mumkin, degan savolga javoban janjir reaksiyasi ish beradi, desak toʻgʻri boʻladi.

Xoʻsh, animatsiyaga, kinoga qanday qilib tadbirkorlarni jalb qilish mumkin? Bunda produserlik markazlarining oʻrni katta. Bizda ham shu yoʻnalishda muayyan ishlar qilinmoqda. Biroq samaradorlik hali kutilganidek zoʻr emas. Mazkur mexanizm rivojlanishi uchun yuridik tizim kerak. Aytaylik, ijodkor bir tadbirkorning oldiga boradi. Mana shu mahsulotimni ishlab chiqarish uchun shuncha mablagʻ bering, deydi. Tadbirkor esa oʻz-oʻzidan “Bu menga nima beradi, sarflagan mablagʻim qancha boʻlib qaytadi?” degan savolni koʻyadi. Produserlik markazlarida shunday savollarga aniq javob beriladi. Ular ijodkorlarni jalb qilgach, hamkorlikda katta mablagʻ yigʻish imkoni paydo boʻladi. Katta mablagʻ esa sifati mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Bugunning animatori serqirra boʻlishi shart

Rivojlangan davlatlarda nashriyotlar rassomlik qobiliyatiga egalər uchun tanlov eʼlon qiladi. Shuningdek, hikoyanavislik, dramaturgiyaga qiziqishi yuqorilar ham oʻz asarlarini tanlovga yuboradi. Ijodiy ishlarning tajribali muharrirlar tahriridan oʻtishi soha rivojida muhim omil boʻladi. Shuningdek, bu orqali yetuk kadrlar kashf etib boriladi.

Ayni paytda Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat institutida animatsiya yoʻnalishida 100 dan ortiq talaba tahsil olaypti. Institut oʻqituvchisi, animatsiya sohasi boʻyicha doktorant Kamola Sulaymonova kadrlar tayyorlash borasidagi ishlar haqida bunday dedi: — Animatsiya yangi soha ekanini hisobga olsak, zamonaviy animatordan bir qancha

yoʻnalishni bilish talab qilinadi. Masalan, kompyuter texnologiyalari, aktyorlik bilimi, kadr kompozitsiyasi boʻyicha mahorat. Har bir bosqich oʻz mutaxassisini talab qilayotgan ayni davrda shunday mutaxassislarni tayyorlash tizimini yoʻlga qoʻyish kerak. Bu yil xalqaro Kann festivalida boʻlib, koʻplab mutaxassislarning treningida qatnashdik. Sharoit bilan tanishdik. Kompyuter texnologiyasi mutaxassislari alohida xonada ishlayapti. Suratga olishgacha boʻlgan jarayon alohida oʻqitilyapti. Operatorlar boshqa xonada mashgʻul. Bizning talabalarimiz ham aktyorlik, montaj, ssenariyanavislik, animatsion film dramaturgiyasi, rejissyorlik mahorati boʻyicha bilimini oshiraypti. Lekin bu jarayonlarni yanada takomillashtirish lozim. Chunki bugun model yasayotgan ijodkor anatomiyani, chizishni, haykaltaroshlikni bilishi kerak. Maketni oʻzi yasab koʻrib, har tomonlama tushunishi joiz. Shuning uchun bizda ham alohida mutaxassislər bilan shugʻullanish, boshqa-boshqa xonalarda tajribalar oʻtkazish

zamonaviy texnologiyalar, bugunning talabidagi qahramonlar qanday boʻlishi kerakligi yuzasidan fikr yuritadi. Gʻoyasi, loyihasi milliyalashtirilayotgan 3-4-bosqich talabalarimiz qiziqib ishlayapti. Ulardan ruhlangan holda oʻzimiz ham yangi loyihalarga qoʻl uraypmiz. Masalan, “Temurning bolaligi” loyihamiz Kinematografiya agentligi tomonidan yuqori baholandi. Serial tarzida ishlash taklifi kiritilganidan mamnun boʻldik.

Multseriallarda milliy libos birlamchi boʻlsin

Yaqinda Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan tayyorlangan “Bek va Lola” multiseriali taqdimoti oʻtkazildi. U orqali milliy qadriyatlarimiz, taʼlim, odob qoidalarini oʻrgatish koʻzda tutilgani aytilmoqda. Albatta, haqiqiy bahoni tomoshabin beradi.



QIMMATGA TUSHGAN “FOTOSESSIYA”

YOXUD QOPQONDAGI KREDIT (Felyeton)



Yoʻq joydan bosh ogʻrigʻini sotib olganimga oʻzimning ham sira ishongim kelmaydi. Qoʻshnim “Sotimxon, bugun dam olish kuni, bir aylantirib kelaman” desa, men, ahmoq uning koʻngliga qarab, rozi boʻlibman. U, zangʻar “Qiyomatli qoʻshnimni nishonga qoʻysam, qanaqa boʻlarkan?!” deb oʻylab ham koʻrmagan. Pul oʻlsin! Besh-toʻrt soʻm naf topaman deb nafsining quliga aylangan-da...

“Sotimxon, bu kishi bankda ishlaydi. Shundoq Mamarasul polvonning fermasiga oʻtib kelamiz. Tayyor mashina. Keyin bir piyola choyimiz boʻ”, deya avrasa, men — xom sut emgan banda rosa quyuq ziyofat boʻlarkan-da, degan xayolga boribman.

Ferner bizni iliq kutib oldi. Qisqagina duo-fotihadan keyin molxona tomon yoʻl oldik. Mamarasul polvonning molboqari ichkaridan bir gʻunajinni olib chiqdi. Avval qoʻshnim uning boʻynidagi arqonidan ushlab, suratga tushishga hozirlandi. Bank xodimi “Ayfון” telefonida ikki-uch xil koʻrinishda suratga tushirdi. Soʻng qoʻshnim “Sotimxon, siz ham shu gʻunajin bilan bir suratga tushing. Juda zotdor ekan jonivor, sizga ham buyursin!” deya arqonni qoʻlimga tutqazdi. Bankir yigit

oldin fotograf boʻlganmi, bilmadim: “Aka, endi gʻunajinning boʻynidan quchoqlab turing!” dedi. Ayrganini qildim: “Endi molning arqonini bir oz boʻshatib, tabassum bilan turing”, dedi. Yana u aytgandek turdim. Bu gʻunajin oldin ham koʻp suratga tushganmi, qay koʻyga solmag, yuvosh tortib turaveradi deng! Chamasi, bankir yigit besh daqiqa ichida gʻunajin bilan mening fotosessiyamni oʻtkazdi-yov...

Oʻsha kuni fermanan toʻgʻri Zokirbaqaning chakalagiga bordik. Atrofiga suv sepilgan soʻriga joylashganimizdan soʻng “choyxoxʻrlik” avjiga chiqdi. Doʻppidek palovxontoʻra kelgunga qadar anavi “zormanda”dan ikkitasini yiqitibmiz. Anchagacha ziyofat juda chiroyli oʻtdi-da deb qoʻshnimdan minnatdor boʻlib yurdim.

Afsuski, oradan bir-ikki oy oʻtgach, bankdan qoʻngʻiroq qilib, “Sotimxon aka, qoramol uchun oʻn sakkiz million

soʻm kredit olgan ekansiz! Shuning toʻlov muddati boshlandi”, desa boʻladimi! Yanglish qoʻngʻiroq boʻldi, shekilli deya: “Adashdingiz, men kredit olmaganman?”, deb qisqa javob qilib, telefonni oʻchirdim.

Yoʻq, boʻlmadi. Yana qoʻngʻiroq qilib, oʻzicha nimalarnidir tushuntirgandek shangʻilladi. Indamay telefonni oʻchirdim. Bankdakilarning “tomoi” kerganmi, deya eʼtibor ham bermay yuraverdim. Kelasi haftasiga masala jiddiyrroq tush oldi.

Kutilmaganda bank xodimi, uchastkovoy, yana 2-3 kishi eshik taqillatib keldi. Yana oʻsha gap: kamina umuman koʻrmagan 18 million soʻm kredit haqida. Kutilmagan “mehmon”lar avvaliga “Shu familiya, imzo siznikimi?!” deya qandaydir shartnomami, allambalo hujjatlarni koʻrsatdi. “Ha, Sotimxon men boʻlaman. Ammo imzo meniki emas. Qayerga borsangiz, boravering”, deb uyga kirib ketmoqchi boʻlsam, uchastkovoy bilagimdan mahkam ushlab toʻxtatib, “Aka, mol turibdimi yoki sotib yubordingizmi?!” degan savol bilan xuddi jinoyatchini qoʻlga olgan “qahramon”dek bir siltab ham qoʻydi.

“Qanaqa mol?! Mol-polni koʻrmaganman. Hovlim 2 sotix. Hatto ikkita qoʻy ham boqolmayman”, dedim boʻsh kelmay jahli bilan. U esa “Men mana bu mollarni soʻrayapman”, deya qora papkasidan bir dasta suratni olib qoʻlimga tutqazdi. Ne koʻz bilan koʻrayki, zotdor jonivor bilan tushgan suratlarim! Tilim aylanmay, nayrangdan karaxt boʻlib qoldim: “Uh, kutilmagan, puxta oʻylangan “fotosessiya” menga qanchalik qimmatga tushdi!” dedim-u, ularga qoʻshilib oʻzim ham nafsning quliga aylanganimdan juda afsuslandim...

Aytsam tilim, aytmasan dilim kuyadi. Men notavon-ku Zokirbaqaning chakalagida yaxshigina “chaqa”ni boʻyinga ildirib, alal oqibat tinchim buzildi. Ishonuvchanlik, soddakat qursin! Shu tobdə oʻzimning gʻam-tashvishim qolib, kamina kabi yemagan somsasiga pul toʻlashda sarson boʻlayotganlarni ham oʻylashga oʻtdim. Qiziq, egnidan ham, boʻynidan ham “uraman” deguvchi tovlamachi, firibragar “Zamon, zamon bizning zamon” deyaveradimi yoki ularning ham jilovini tortib qoʻyadigan topilarmikan?! Ishqilib, topilsin-da!

Aks holda, bu kabi voqea ommalashsa, jamiyatimizdagi firibragarlarga yana keng yoʻl ochilib qoladimi degan xavotirdaman.

Odiljon MUHAMMAD

Namangan viloyati, Chortoq shahri

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
Oʻzbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “Kolopak” MCHJ masʼul.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 2759. 41126 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qogʻoz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Oʻzbekiston, 100060, Toshkent, Yangi shahar koʻchasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy

OʻzA yakuni — 22:15 Topshirildi — 00:05